

Soliq qo‘mitasi huzuridagi
Jamoatchilik kengashining 2024-yil II choragidagi
faoliyati haqida qisqacha ma’lumot

2024-yilning II choragida Jamoatchilik kengashi ikkita majlis va Soliq qo‘mitasi mutaxassisleri bilan bitta uchrashuv o‘tkazdi. Ularda quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi:

1. Tadbirkorlik subyektlari barqarorligining reyting tizimi samaradorligi:
 - PQ-193ga muvofiq qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etish uchun reytingni qo‘llash muammolari ko‘rib chiqildi.
 - Reyting ballarini shakllantirishda texnik xatolar aniqlandi.
 - Reytingning turli soliq va imtiyozlarga nisbatan qo‘llanilishidagi noaniqliklar muhokama qilindi.
2. Soliq maqsadlari uchun narxlarni shakllantirish bo‘yicha Nizom loyihasi tahlili:
 - O‘rtacha bozor narxini belgilash orqali soliq bazasini "qonuniylashtirish" xavflari ko‘rib chiqildi.
 - Turli tovar va xizmatlar uchun adolatli narx oralig‘ini aniqlashning murakkabligi muhokama qilindi.
 - Vijdonli soliq to‘lovchilarga salbiy ta’sir ko‘rsatish ehtimoli aniqlandi.
3. Tekshiruvdan oldingi tahlil formulalarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish:
 - Tahlil formulalarida amortizatsiya, transport xarajatlari, valyuta kursi farqlari va boshqa jihatlarni hisobga olish masalalari ko‘rib chiqildi.
 - Soliq to‘lovchilarning real holatini yanada aniqroq aks ettirish uchun hisoblash uslubiyatiga o‘zgartirishlar taklif qilindi.
4. Depozitlardan olingan foizli daromadga hisobvaraqq-fakturalarni rasmiylashtirish masalasi bo‘yicha Xulosa tayyorlash:

- Fuqarolik va Soliq kodekslari, Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun normalari tahlil qilindi.
- Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasining qonunchilik bazasi va huquqni qo'llash amaliyoti o'rganildi.
- Depozitlardan olingan foizli daromadga hisobvaraƒ-fakturalarni talab qilish amaliyotiga qarshi asoslar bilan xulosa tayyorlandi.

Majlislar yakunlari bo'yicha Jamoatchilik kengashi soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorladi. Bu takliflar joriy etish ehtimolini ko'rib chiqish uchun Soliq qo'mitasiga taqdim etildi.

Kengash raisi

M. Perper